



PIYODALAR KIYIMINING RANGI YO'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISHDA QANDAY AHAMIYATGA EGA.

Isoxanov O'tkir Ibodullayevich.

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.

Turdibekov Salohiddin Qodirovich.

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.

Utkirov Shokirxuja Shavkat o'g'li

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Yo'l harakatini tashkil etish kafedrası katta o'qituvchi.

shokirxuja8687@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda mamlakatimizda yo'l harakati xavfsizligi sohasida dolzarb mavzulardan biri bu Toshkent shahri ko'chalarida piyodalarning yoshiga qarab ular ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarning oshib borayotganligi, ularning tahlili va ko'chalarda piyodalarning yoshiga qarab ular ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini oldini olish hamda uni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: yurish imkoniyati, keksa piyodalar, avariylar chastotasi, xavfsizlik darajasi, xavfsizlikni baholash, kompozit ko'rsatkich, "yoshi katta" piyodalar, baxtsiz hodisalar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning 12 oyi mobaynida poytaxtda 1200 tayo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan. Hisobot davrida YTH oqibatida halok bo'lganlar soni 136 nafarni tashkil etgan, 1463 nafari tan jarohat olgan. Yo'l-transport hodisalarining 32,5 foizini piyodalar ishtirokidagi baxtsiz hodisalar tashkil etadi. Bolalar ishtirokida 169 ta YTH sodir bo'lgan, buning oqibatida 56 nafar voyaga yetmaganlar tan jarohati olgan, 17 nafari vafot etgan. Har bitta raqam ortida insonlar taqdiri yotibdi. Bitta insonning halok bo'lishi – uning oila a'zolari, yaqinlari uchun og'ir judolik hisoblanadi. O'tgan bir yil davomida haydovchilar tomonidan yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida sodir bo'lgan YTHlar tahliliga to'xtalsak. Eng ko'p uchraydigan qoidabuzarlik tezlikni oshirish bo'lgan - 370 ta holat. 143 nafar haydovchi svetofoorning taqiqlovchi ishorasiga o'tgan. 8 ta baxtsiz hodisa avtomobil rulida o'tirgan shaxslarning mast holatda bo'lganligi sababli sodir bo'lgan. 73 ta YTH jiddiy oqibatlarga olib keldi. Bir so'z bilan aytganda, har bir haydovchi transport vositasini boshqarayotganda nafaqat o'zi, balki yo'lovchilar va piyodalarning hayotiga mas'uliyat bilan qarashlari lozim. Piyodalar esa yo'l harakati ishtirokchisi ekanligini unutmasligi va o'rnatilgan qoidalarga rioya etishlari kerak.



Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) mutaxassislari piyodalar kiyimining rangi yo'l-transport hodisalarining oldini olishda qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlil qildi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda 3559 ta YTH sodir bo'lib, ularda 2775 kishi turli darajada tan jarohatini olgan, 784 nafari esa hayotdan ko'z yumgan. Har to'rtinchi baxtsiz hodisaga tezlikning belgilangan me'yordan oshirilishi sabab bo'lgan. Baxtsiz hodisalarning 47 foizida piyodalar urib yuborilgan. Yo'l-transport hodisalari katta iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili yo'l-transport hodisalarida 1,3 million kishi hayotdan bevaqt ko'z yumadi va 20 million nafardan 50 million nafargacha odam turli hil tan jarohatini oladi. "Yo'l harakati xavfsizligiga sarmoya kiritish: global xususiy sektor majburiyati" nomli tadqiqotda baxtsiz hodisalar dunyo iqtisodiyotiga yiliga 518 milliard dollar zarar keltirishi hisoblab chiqilgan. Jahon banki hisobotiga ko'ra, yo'l-transport hodisalari tufayli hayotdan ko'z yumish va jarohat olish bilan bog'liq holatlar iqtisodiy rivojlanishning o'rta va uzoq muddatli istiqboliga ta'sir qiladi. Chunki YTH katta yoshdagi odamlarni mehnatga layoqatli safidan chiqaradi, jarohat oqibatida mehnat unumdorligi pasayadi.

135 ta mamlakatdagi o'lim darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha batafsil ma'lumotlardan foydalangan holda baxtsiz hodisalar oqibatida o'lim bilan bog'liq holatlarning o'rtacha 10% ga kamayishi real YAIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushini 24 yil davomida 3,6 foizga oshirishi aniqlandi. Yo'llarda o'lim darajasini kamaytirishning turli usullari mavjud. Samarali usullardan biri bu tunda piyodalarning yorqin rangdagi kiyimlarni kiyishidir.

O'zbekiston Respublikasining aholisi 2022 yil dekabr oyiga 36 mln. kishidan oshib ketib, bunda 9 dekabr holatiga erkaklar soni 18 mln 76 ming 222 nafarni, ayollar soni 17 mln 849 ming 415 nafarni tashkil etmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan,



1-rasm. Piyodalar o'tish joylari.



Toshkent shahri aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi. Hozirgi kunda Respublikamizda o'ziga xos demografik vaziyat vujudga kelgan va u aholi sonining progressiv o'sishi, aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo'lganlar va keksa yoshdagilar ulushining ortishi, mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi sonining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayoni ortayotganida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga poytaxtimiz aholisining soni yildan-yilga jadal ravishda o'sishi yo'llarda ham transport vositalarining ko'payib borishi, o'z navbatida, o'ziga xos masalalarning yechimini talab etmoqda.

Ayni vaqtda Respublikamizdagi barcha yo'llar bilan bir qatorda poytaxtimiz yo'llari, mahalla va ko'chalar ham qayta ta'mirlanib, davlatimiz rahbarining "Obod mahalla", "Obod ko'cha" Dasturi asosida yo'llarning ahvoriga juda katta e'tibor berilmoqda. Shuningdek, transport vositalarining ravon harakatlanishi uchun birmuncha qulayliklar yaratilib kelinmoqda. Endilikda transport vositalari harakatlanayotgan yo'llarning sifatini yanada oshirish borasida ko'pgina amaliy ishlar olib borilyapti. Ammo bu borada yechim izlashga majbur qilib kelayotgan yana bir jiddiy muammo bor. Hozirgi kunda dolzarbligidan kelib chiqqan holda, poytaxtimiz ko'chalarida piyodalarning yoshiga qarab ularishtirokidagi yo'l-transport hodisalarning tahlili va ushbu piyodalarning yoshiga qarab ular ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini sodir etilayotganliklari hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Yo'l-transport hodisalari ko'paygani bilan bog'liq masalalar muhokamasida ma'lum bo'lishicha, bu borada eng asosiy muammo — haydovchi va piyodalarning bilim-ko'nikmalari, qonunga itoatkorlik va boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga o'zaro hurmat va muomala madaniyatining o'ta pastligida. Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jazo qo'llanilyapti, lekin natija kutilganini bermayapti. Ta'mirtalab yo'llarni sozlash, yaroqsiz holga kelib qolgan yo'l belgilarini yangisiga almashtirish ishlari amalga oshirilyapti. Ammo piyodalar ishtirokidagi YTHlarning salbiy raqamlar kun sayin emas, soat sayin oshmoqda. Shu o'rinda alohida ta'kidlab aytish kerakki, ayni yuqorida tilga olingan masala bugun ko'pchiligimizni o'ylantirib, qiynab kelayotgan dolzarb muammolardan biriga aylandi. Eng achinarlisi sodir bo'layotgan aksariyat yo'l-transport hodisalarda turli yoshdagilar, ayollar va yosh bolalar hayotdan ko'z yumoqda. Ushbu piyodalar ishtirokidagi YTHlarning sabablari ko'p. Ammo eng asosiy sabablardan bittasi bu haydovchilarning qonunga itoat qilmasligi va o'zaro hurmatning yo'qolib borayotganligi. Masalan, biron bir piyodalar o'tish yo'lakchasida yo'l belgisi, yo'l chiziq-lari mavjud bo'lsada, ammo shu yaqin joyda yo'l-patru-l xizmati xodimi yoki kamera o'rnatilmagan bo'lsa.

YTHlarining xususiyatlari, o'tish joylarida piyodalar va haydovchilarning hatti-harakatlari hamda piyodalar o'tish joylari xavfsizligini oshirish chora-tadbirlarini baholash bo'yicha va hokazo. Biroq, ko'plab omillar va xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi va nisbiy ahamiyati hali ham aniq emas. Shahar hududidagi piyodalar o'tish

joylarining xavfsizlik darajasini maxsus ma'lumotlar yig'ish shakllaridan foydalangan holda joyida tekshirish asosida baholash imkonini beruvchi metodologiya taqdim etilgan. Eng ziddiyatsiz piyodalar yo'li galereyalardan yoki yer osti tunnelari yer usti ko'priklaridan o'tadi, lekin bunda ularning uzunligi qancha katta bo'lsa, odamlar undan shuncha foydalanmaslikka harakat qiladilar. Chunki bunda piyodalar oqimining zichligi oshib ketadi, tabiiy manzaralar ko'rinmay qoladi, shuningdek aksariyat piyodalarning yoshi qancha katta bo'lsa jismonan, sog'lig'i va boshqa sabablar tufayli yuqorida ko'rsatilgan qo'rilma va piyodalar yo'lidan foydalanmaydi. Natijada yo'lni qatnov qismini kesib o'tish uchun turli joylardan o'tishga harakat qilishadi va ko'pincha baxtsiz oqibatlariga duch kelishadi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yo'l harakati qoidalarini buzgan piyodalarga ko'riladigan chora-tadbirlarning o'zi bilan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. BMT ekspertlarining qayd etishicha, YTHning 15 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'limining asosiy sababchilaridir.



2-rasm. Piodallar kiyimining YTH ga tasiri.

Hulosa sifatida PMTI tungi vaqtda piyodalar kiyimining rangi qay darajada ko'rinishini namoyish etuvchi infografikani tayyorladi. Yorug'likni qaytaruvchi elementlar 130 metrdan ko'rinadi. Bu esa soatiga 80 km tezlikda harakatlanayotgan avtomobilning ham o'z vaqtida to'xtashiga imkon beradi. Yorqin ranglar (sariq, oq) 37-55 metr masofadan ko'rinadi. Agar ko'k rang 17 metr masofadan ko'rinsa, qora rang deyarli ko'rinmaydi. Tezlikni belgilangan me'yordan oshirmaslik, maktab va boshqa ta'lim muassasalari yonida tezlikni pasaytirish haydovchilarga transport vositasini o'z vaqtida to'xtatishga ulgurish imkonini beradi. Piyodalar ko'p o'tadigan joylarda (jamoat joylari yaqinida, turar joy mavzellarida) tezlikni infratuzilmaviy muhandislik vositalari yordamida cheklash amaliyotini keng miqyosda davom ettirish maqsadga muvofiq. Masalan, jahon amaliyotida yo'l sathidan biroz balandroq piyodalar yo'lagi, piyodalar o'tadigan joylarda yo'lning qatnov qismini toraytirish, sun'iy burilishlar va boshqa usullar qo'llaniladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10.
2. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65.
3. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ НАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.
4. S Utkirov (2023). YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA YANGICHA MEKANIZMLARNI ISHLAB CHIQUISH. Академические исследования в современной науке 2 (4) 71-73.
5. Ў Isoxanov, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАХЛИЛИ ИЖОДКОР О'QITUVCHI 2 (24), 216-219.
6. Ў Isoxanov, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАХЛИЛИ ИЖОДКОР О'QITUVCHI 2 (24), 220-222.
7. Б Рахмат, Э Абдусаматов, Ш Шерматов (2022). ТОШКЕНТ ШАХРИ КЎЧАЛАРИДА ТАРТИБГА СОЛИНМАГАН ПИЁДАЛАР ЎТИШ ЖОЙИДА ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ХОДИСАЛАРИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. ИЖОДКОР О'QITUVCHI 2 (24) 44-47.
8. S Shamshir, A Erkinjon, R Baxtiyor (2023). YO'L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNING O'RNI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2 (20) 87-91.
9. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ХАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.
10. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65.
11. O' Isoxanov, E Abdusamatov, S Turdibekov (2022). ENGIL VA YUK AVTOMOBILLAR ISHTIROKIDAGI YTH TAHLILI. ИЖОДКОР О'QITUVCHI 2 (24), 216-219.
12. TNH Abdurazakova D.A, Abdusamatov E.X. (2023). REDUCING VEHICLE EXHAUST GASES BY COMPUTER SIMULATION OF THE ROAD INTERSECTION. European Chemical Bulletin 12 (4) 8615-8623. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.769



13. SX Shermatov, UI Isoxanov, USS o'g'li (2023). METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR DETERMINING VEHICLE SPEED. European Chemical Bulluten 12 (4) 8624-8631. DOI:10.48047/ecb/2023.12.si4.770

14. SX Shermatov, SSO Utkirov, EXOGL Abdusamatov (2023). TRANSPOR SOHASIDA YUZAGA KELGAN MUAMOLARNING EKOLOGIYAGA TASIRI (avtomobil transporti). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3 (2) 702-709.